

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida	247
S.Z.Yoʻldoshev	
Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari	251
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi	256
Sh.M.Bazarbayeva	
Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
O.X.Mahamadjonova	
Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir	268
G.A.Donisheva	
Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida)	273
L.A.Xaitov	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi.	276
Sh.S.Kodirova	
Teaching English language to geology students	280
S.S.Xoʻjiyeva	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish	283
F.I.Sharipova	
Developing reading comprehension at future nurses	288
U.B.Usmonova	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi	294
K.X.Авазов	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе	297
A.N.Qosimov	
Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati	303
A.T.Nishonov	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari	310
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari	314
U.D.Xudoyorov	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari.....	318
S.U.Allayarova	
Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
Ch.T.Qurbonova	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
Z.A.Kendjaeva	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
L.S.Sultonova	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish	338
Sh.T.Temirov	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni.....	341
S.X.Kaxxarov	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili	346
A.R.Joʻrayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi	351
M.C.Мухамедова	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
G.J.Tulenova	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO'K: 343.95:343.3

**VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGI MIQDOR VA SIFAT
KO'RSATKICHLARINING XUSUSIYATLARI**

**КОЛИЧЕСТВЕННЫЕ И КАЧЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
ПРЕСТУПНОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ**

**JUVENILE DELINQUENCY QUANTITY AND QUALITY
FEATURES OF INDICATORS**

Xudoyorov Umidjon Dagarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Sirdaryo viloyati Yuridik texnikum o'qituvchisi, 3-darajali adliya maslahatchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzurligining hozirgi kundagi holati, miqdori, sifati va o'zgarishiga sabab bo'ladigan asosiy sabablar va huquqbuzarliklarni oldini olishda miqdoriy ko'rsatkichlarini o'rganishning dolzarbligi. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi jamiyat uchun katta xavf tug'diradi. O'smirlar jinoyatchilik uchun zaxiradir, chunki ko'pchilik bu yo'lni yoshligidan boshlagan, kattalar kabi jinoyi faoliyatni davom yettirmoqda. Ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish va oldini olish uchun kriminologik ko'rsatkichlarni o'rganish lozim. Profilaktik choralarini aniqlash va voyaga yetmagan huquqbuzarlarning shaxsiga ta'sir qilish uchun zarur choralarini ishlab chiqish, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'rganish kerak. So'nggi uch yil ichida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 29,4 foizga ko'paygan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining umumiy dinamikasi va darajasi 2020-yildan 2023-yilning iyun oyiga qadar o'sish kuzatilgan, shuningdek jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra og'ir, o'ta og'ir, guruh tarkibida sodir etilgan jinoyatlar miqdori kamaymagan. Demak voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holati va dinamikasi ko'rsatkichlarida salbiy o'zgarishlar mavjudligi aniqlandi.

Аннотация

Актуальность изучения в данной статье основных причин и количественных показателей несовершеннолетних правонарушений и профилактики правонарушений, обуславливающих их изменение, количество, качество и состояние в настоящее время. Правонарушения несовершеннолетних представляют большую опасность для общества. Подростки являются резервом для преступности, поскольку многие начинают свой путь в молодом возрасте, Продолжая преступную деятельность во взрослом возрасте. Для эффективной борьбы и профилактики данного вида преступности необходимо изучить криминологические показатели. Необходимо определить меры профилактики и разработать необходимые меры воздействия на личность несовершеннолетних правонарушителей, изучить количественные и качественные показатели. За последние три года количество совершенных несовершеннолетними преступлений увеличилось на 29,4 процента. Подводя итог, можно сказать, что общая динамика и уровень преступности несовершеннолетних в период с 2020 по июнь 2023 года наблюдался рост, равно как и тяжесть, тяжесть преступлений по своему характеру и степени общественной опасности, количество преступлений, совершенных в составе группы, не уменьшилось. Отсюда выявлено наличие негативных изменений показателей состояния и динамики преступности среди несовершеннолетних.

Abstract

In this article, the relevance of studying the current state, amount, quality and quantitative indicators of juvenile delinquency in the Prevention of major causes and offenses that cause changes. Juvenile delinquency is a major threat to society. Adolescents are a reserve for crime, as many have begun this path at an early age, while continuing criminal activities such as adults. In order to effectively combat and prevent this type of crime, it is necessary to study criminological indicators. It is necessary to identify preventive measures and develop the necessary measures to influence the personality of minor offenders, to study quantitative and qualitative indicators. The number of crimes committed by minors has increased by 29.4 percent over the past three years. In conclusion, the General Dynamics and level of juvenile delinquency has been increasing from 2020 to June 2023, as well as the fact that the crimes are severe, acute, according to their nature and level of social danger, the amount of crimes committed in the group has not decreased. So it was found that there are negative changes in the indicators of the state and dynamics of juvenile delinquency.

Kalit soʻzlar: voyaga yetmaganlar, jinoyat, huquqbuzarlik, dinamika, miqdor va sifat, shafqatizlik, tarbiyalash, reabilitatsiya qilish.

Ключевые слова: несовершеннолетние, преступность, правонарушение, динамика, количество и качество, жестокость, воспитание, реабилитация.

Key words: minors, crime, offense, dynamics, quantity and quality, cruelty, upbringing, rehabilitation.

KIRISH

Hozirgi vaqtda Respublikamizda voyaga yetmaganlarning hayoti va huquqiy himoyasi sohasidagi muammolar majmuasi mavjud boʻlib, ular Davlat organlari va umuman jamiyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan oilalar va voyaga yetmaganlar sonining koʻpayishi, jismoniy va ruhiy salomatlikning yomonlashishi, ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlishi, nazoratsizlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm, oʻsmirlar va yoshlar oʻrtasida giyohvandlik kabi muammolar haligacha dolzarb boʻlib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy jihatdan, jinoyatchilik yomon ishlarning takrorlanadigan koʻrinishi. Shu nuqtaiy nazardan kelib chiqib, Salex Ali Salem Al-Marfadiy voyaga yetmaganlarning xulq-atvoridagi ogʻishni guruhlarga birlashtirish orqali ularni shartli ravishda kengaytirishni taklif etib, tarbiyasi ogʻir bolalar, ruhiy kasal bolalar, tashlab ketilgan va adashgan bolalar [1;24-25] kabi guruhlarga ajratgan.

D.B.Elkonin oʻspirinlik davrini ilk oʻspirinlik va katta oʻspirinlik davrlariga ajratib, bu davrda oʻspirinlarda yetakchi faoliyat oʻqish va kasb tanlash hisoblanadi dega fikrlarni bildirdi. Ilk oʻspirinlik davri “kamolot boʻsagʻasi” deb taʼriflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni oʻz ichiga oladi. Yoshlarning jamiyatda tutgan oʻrni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bogʻliqdir [9]. Ilk oʻspirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan taraqqiyot davrini oʻz ichiga oladi. Bu umumtaʼlim maktablarining yuqori sinf va akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari oʻquvchilaridir.

A.L.Suxarevning fikricha Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi tushunchasi voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir yetilgan jinoyatlar majmui bilan bogʻliq, yaʼni 14 yoshdan 18 yoshgacha, ular kriminologik nuqtayi nazardan uchta yosh guruhini oʻz ichiga oladi: 14-15, 15-16 va 17-18 yosh. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga aksariyat hollarda yosh oʻsmirlar (10-13 yosh) tomonidan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar sodir etilishiga, yosh kattalar (18-21 va 22-25 yosh) tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar taʼsir qiladi [11;55]. Masalan, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarlik yoshiga yetgunga qadar ijtimoiy xavfli harakatlarni sodir etadilar, ular obyektiv jihatdan jinoyatlarga oʻxshash, ammo qonuniy jihatdan (subyekt sifatida) javobgarlikka torta olmaymiz yoki jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud boʻlsa-da, oʻzining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli boʻlmaganligi sababli (daftar, ruchka oʻgʻirlashi) jinoyat deb topilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi javobgarlik yoshga toʻlmagan shaxslar tomonidan sodir yetilgan salbiy, ijtimoiy – huquqiy hodisalar, yaʼni anti – ijtimoiy va noqonuniy xatti-harakatlar majmuidan boshqa narsa emas.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oʻxshash koʻrsatkichlariga kelsak, Zigmunt Olga Aleksandrovna - Fecht universiteti (Germaniya) - oʻz tadqiqotida rus va nemis oʻsmirlarida uncha ogʻir boʻlmagan jinoyatlar ustunlik qilishini taʼkidlaydi. Eng koʻp uchraydigan huquqbuzarliklar oʻzgalarning mulkiga zarar etkazish, doʻkonlarni oʻgʻirlash va quolsiz tan jarohati yetkazishdir. Aholi orasida avtomobil oʻgʻirlash, qurol bilan tan jarohati yetkazish, talonchilik va tovlamachilik kam uchraydi. Shunga qaramay, voyaga yetmaganlar jinoyati tarkibida mamlakatlar boʻyicha statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjud [14;173-181].

Jinoiy javobgarlik, jazolarni ijro etish va umuman, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi tushunchalariga kelsak, turli mamlakatlarda ushbu davlat institutlari oʻrtasida ancha farqlar mavjud. Xitoy qonunchiligi har qanday huquqiy tartibga solish va buzilishiga juda qattiq munosabatda boʻladi. Xitoyda hatto ijtimoiy xavfli katta boʻlmagan jinoyatlar ham qatʼiy va darhol jazolanadi. Xitoy Xalq Respublikasida jinoiy javobgarlik instituti ayniqsa rivojlangan. Oʻz navbatida, markaziy oʻrinlardan birini oʻlim jazosi egallaydi.

Xitoyda (Sun Szining stratagemasi) qadimiy hiyla keng tarqalgan: "Ilonni qo'rqitish uchun, maysaga urish kerak", unga ko'ra bir kishining jazosi shafqatsiz bo'lsa-da, "maysaga urish" vazifasini bajaradi, natijada ko'plab jinoyat sodir qilmoqchi bo'lganlar "qo'rqib ketgan ilonlar" qo'rqib jinoyatdan yuz o'giradi [14;47-57]. Sovet Ittifoqi rivojlanishining ma'lum bir bosqichida xuddi shunday "qo'rqitish usuli" ni ham qayd etish mumkin. Yevropaning aksariyat demokratik davlatlari, shuningdek, Rossiya, AQSH va O'zbekiston ham bugungi kunda Yaponiyaga xos bo'lgan zo'rvonliksiz oldini olish yo'lida rivojlanishga harakat qilmoqda.

A.L.Suxarevning fikricha Mutaxassislarning aksariyati voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining rivojlanishida ularni huquqbuzarlikka jalb etish muhim determinant rol o'ynashini ta'kidlagan, voyaga yetmaganlarning jinoyatlarni sodir etishda jalb qilish holatlari soni 16 foiziga ortib borayotganini hozirgi jinoiy vaziyatning asosiy xususiyatlaridan biri deb hisoblaydi [15;56].

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bilan bog'liq yana bir muhim masala – o'smirning shafqatsizligi va yomon turmush sharoiti salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tegishli qiyin vaziyat nafaqat O'zbekistonda, masalan, Angliya va Uelsdagi jinoyat so'rovi (CSEW) ma'lumotlariga ko'ra, 18 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan har beshinchi kattalar taxminan 16 yoshgacha (8,5 million kishi) kamida bitta bolaligda zo'rvonlikni boshdan kechirgan, masalan, hissiy zo'rvonlik, jismoniy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik yoki oiladagi zo'rvonlik yoki zo'rvonlikning guvohi bo'lgan. Angliya milliy statistika boshqarmasi jinoyat va adolat markazi idorasining xodimasi Aleksa Bredlining (yuqoridagi statistikasini sharhlashicha) ta'kidlashicha, "bolalarga nisbatan zo'rvonlik ko'lami va tabiatini o'lchash qiyin, chunki u odatda ko'zdan yashiriladi va ko'p shakllarda namoyon bo'ladi, turli ma'lumotlarni yig'ish, manbalar to'plash bizga bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatning mohiyatini va qo'llab-quvvatlash xizmatlariga bo'lgan potensial talabni yaxshiroq tushunishga yordam beradi" [12]. Bunday zo'rvonlikning kechikishi sabablari quyidagicha tushuntiriladi: noto'g'ri sharoitlarda o'sgan bolalar bunday sharoitlarni normal deb bilishadi. Salbiy "ota-onalik amaliyotlarini" qabul qilish orqali ular xuddi o'z farzandlariga ham qo'llashlari mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlat organlari faoliyatining barqarorlik darajasiga tubdan ta'sir ko'rsatadigan yeng muhim va dolzarb zamonaviy muammolardan biri bu voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish tendensiyasidir.

Bu muammo, albatta, zamonaviy jamiyatdan voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga qarshi kurashning institutsional modelini yaratishga kompleks ijtimoiy-huquqiy yondashuvni talab qiladi.



Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2023-yil yanvar-iyun oylari uchun, kishi)

5-rasm

ILMIY AXBOROT

2023-yil yanvar-iyun oylarida voyaga yetmaganlar tomonidan 758 ta o'g'irlik, 190 ta bezorilik, 68 ta firibgarlik, 72 ta talonchilik va bosqinchilik, 42 ta qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 20 ta nomusga tegish va nomusga tegishga urinish, 6 ta qasddan odam o'ldirish jinoyatlar sodir etilgan. Farg'ona viloyatida jinoyat sodir etganligi aniqlangan voyaga yetmaganlar ichida o'g'il bolalar eng ko'p kuzatilmoqda – bu viloyatdagi umumiy sonining 5,7 % i, keyin Toshkent shahrida – 218 nafar (shahardagi huquqbuzarlar umumiy sonining 3,3 % i), Namangan viloyatida – 173 kishi (5,2 %) [2]. (5-rasmga qarang)

Voyaga yetmagan qizlar o'rtasida Farg'ona viloyati – 36 nafar, Toshkent va Namangan viloyati – 7 nafar bilan ustunlik qilmoqda. Xorazm, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahrida jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan qizlar yo'q.

Nomusga tegish – zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'zligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish (O'zb.Resp. JK 118-modd). Nomusga tegishga urinish jinsiy aloqa bilan yakunlanmaydigan nomusga tegishga urinishdir. Biroq, urinishning o'zi jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar


2021-2023-yillarning yanvar-iyun oylari uchun, holatlar (6-rasmga qarang)



6-rasm

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining asosiy ko'rsatkichlarining ko'tarilishi fonida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishi hamda iltimosnomalar bo'yicha dinamikasi ham tez ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'lumotlariga ko'ra, jinoyat ishlari bo'yicha sudlari 2020-yil davomida 499 ta sudlanib, shundan 53 ta OMQ jazosi berilgan, 2021-yil davomida 1151 ta sudlanib, shundan 127 ta OMQ jazosi berilgan, 2022-yil davomida ularning soni 1773 ta sudlanib, shundan 231 ta OMQ jazosi berilgan bo'lsa, 2023-yilning birinchi yarmida 950 ta sudlanib, shundan 108 tasiga OMQ jazosi berilgan [3].

2023-yilning yanvar-iyun oylarida voyaga yetmaganlarning aksariyati quyidagi jinoyatlar uchun sudlangan: birinchi o'rinda o'zgalar mulkini talon-toroj qilish, shu jumladan: o'g'irlik (683 ta), talonchilik (53 ta), firibgarlik (84 ta); ikkinchi o'rinda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, shu jumladan: bezorilik (120 ta), uchinchi o'rinda sog'liqqa qarshi jinoyatlar, shu jumladan: qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (41 ta), to'rtinchi o'rinda: nomusga tegish (17 ta), tovlamachilik (17 ta), giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar (17 ta), hayotga qarshi jinoyatlar (5 ta) oxirgi o'rinlardan joy olgan [4]. (7-Rasmga Qarang)



7-рasm

Xorijiy mamlakatlarda ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yo'nalishi bilan bog'liq vaziyatlarning o'xshashlik jixatlari mavjud.

Masalan, 2020-yil Yevropa davlatlari va AQSHda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan mulkka qarshi jinoyatlar voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 80 foizini (O'zbekistonda 53,6%) tashkil qiladi [5].

Har bir davlatda milliy o'ziga xosliklar mavjud. Masalan, Yaponiyada voyaga yetmaganlar jinoyati tarkibidagi jinoyatlarning uchdan ikki qismini o'g'irlik tashkil etadi va so'nggi o'n yil ichida bu jinoyatlar salmog'ining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Ikkinchi o'rinni o'zgalarning mulkini o'zlashtirishga qaratilgan boshqa jinoyatlar egallaydi. Bu, qoida tariqasida, qarovsiz velosipedlar va mopedlar. Ushbu turdagi huquqbuzarliklar barcha jinoyatlarning qariyb beshdan bir qismini tashkil etadi, biroq o'g'irlik bilan solishtirganda, bunday huquqbuzarliklar ulushida yildan-yilga barqaror pasayish kuzatilmoqda. Zarar bilan bog'liq bo'lgan tajovuzlarning ahamiyati uchinchi o'rinda bo'lsa, kamayish tartibida talonchilik, bosqinchilik va tovlamachilik, oxirgi o'rinda qotillik va zo'rlash kabi og'ir jinoyatlar turadi, ular voyaga yetmaganlar jinoyatlari ulushining 0,14 foizini tashkil qiladi [6].

O'zbekistonning 2022-yil holatiga og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning umumiy ko'rsatkichlar bilan solishtirganda (4% - 126 ta), yapon o'smirlari og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga kamroq moyil ekanligini ko'rish mumkin. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat Yaponiyaning tarbiya bilan bog'liq jarayonlarga alohida darajada e'tibor qaratilayotganligi, balki bu tarbiya jarayonida davlat tizimining o'z fuksiyalarini bajarishiga bog'liq. Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashning yumshoqligi va davlat siyosatining, birinchi navbatda, jinoyatchilikning oldini olishga yo'naltirilganligi bunday statistikani shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Sud voyaga yetmagan shaxsga ma'muriy jazo chorasini qo'llayotganda uning harakatini javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida baholaydi hamda huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sabablar va asoslarni albatta ko'rsatib, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo yoki ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa yanada yengil jazo chorasini qo'llashi mumkin [7].

Amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan ko'pgina huquqbuzarliklar uchun jazo chorasini qo'lanilmaydi balki, ularga nisbatan ogohlantirish ta'sir chorasini qo'llaniladi. Chunki voyaga yetmagan shaxs bu avvalo tarbiyaga va himoyaga muhtoj shaxsdir. Shuning uchun bu toifa shaxslarga bilan ko'pgina holatlarda jazolash orqali emas, balki ishonitirish va ogohlantirish usullari orqali profilaktik ta'sir ko'rsatiladi [8].

Voyaga yetmaganlar ko'pincha balog'at yoshidan (13-15 yoshdan) boshlab, o'spirinlik davrida (16-17) jinoyat sodir etadilar.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining hududiy taqsimlanishini o'rganish kriminologik ahamiyatga molik bir qancha tendensiyalarni namoyon etdi. Statistik kuzatish bilan qamrab olingan

ILMIY AXBOROT

respublika va uning viloyatlari o'rtasida jinoyatchilik darajasida jiddiy miqdoriy tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatini hududiy kontekstda ko'rib chiqib tahlil qilsak. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 2022-yilning shu davriga nisbatan ro'yxatga olingan jinoyatlar sonining kamayishi O'zbekiston Respublikasining Qoraqalpog'iston Respublikasida (-6,6%), Toshkent shahrida (-2,3%), Farg'ona viloyati (-28,9%) hududlarida kuzatildi.

Ro'yxatga olingan jinoyatlar sonining o'sish tendensiyasi Respublikamizning qolgan viloyatlarida asosan Sirdaryo viloyati (65,5%), Buxoro viloyati (62,1%), Surxondaryo viloyati (41,1%), Qashqadaryo viloyati (37,8%), Namangan viloyati (34,6%), va Andijon viloyatlarida (25,2%) qayd yetildi.

Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning eng katta ulushi nisbatan Farg'ona viloyati 437 ta, Toshkent shahri 223 ta, Toshkent viloyati 124 ta, Namangan viloyati 121 ta qayd etilgan [10].

2020-2022-yillar hamda 2023-yilning 6 oyi davomida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining asosiy kriminologik ko'rsatkichlarini o'rganish natijalariga ko'ra biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- birinchidan, so'nggi uch yarim yil ichida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlari va jinoyatlarning miqdoriy ko'rsatkichlari ko'tarilganligini, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi dinamikasi esa har yili kriminologik ko'rsatkichlarning ko'tarilib borayotganligini ko'rsatmoqda.

- ikkinchidan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilgandan so'ng, tarkibiy o'zgarishlar sezilarli bo'ldi. Jinoyatchilik darajasining o'sishiga qaraydigan bo'lsak, o'g'irlik, bezorilik hamda firibgarlik jinoyatlar ulushining ko'payganligini kuzatishimiz mumkin, bu esa voyaga yetmaganlarning alohida shafqatsizligi va tajovuzkorligi ko'tarilganligini ko'rsatadi. Voyaga yetmaganlar orasida o'zni boshqalardan ustun qo'yishi hamda zo'ravonligi jinoyat sodir etishda ustunlik qiladi.

Zo'ravonlik va shafqatsizlik voyaga yetmaganlar jinoyatlarining xarakterli belgilaridir. Voyaga yetmaganlar ko'pincha zo'ravonlik va shafqatsizlik chegaralaridan oshib ketishadi, bu muayyan vaziyatda o'z maqsadlariga erishish uchun etarli bo'ladi. Voyaga yetmaganlar jinoyat sodir etish chog'ida o'zlari uchun noqulay sharoit tug'ilganda qotillik, badanga og'ir shikast yetkazish, talon-taroj qilish kabi jinoyatlarni sodir etadilar.

Uslubiy nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar va umumiy jinoyatlar ko'rsatkichlarini alohida hodisa sifatida solishtirish ham metodologik jihatdan noto'g'ri. Aslida, bu holtni, taqqoslash qism va qismni o'z ichiga olgan butun o'rtasida o'rganilishi lozim. Taqqoslash turli jinoiy faoliyat guruhlarini: voyaga yetmaganlar, yoshlar (18-21 yosh) va katta yoshdagilar kontingentlari bo'yicha ko'rsatkichlarni aniqlagan holda "qismga" tamoyili asosida amalga oshirilishi kerak.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi kriminologik tadqiqotlarning mustaqil obyektiga aylanganining sababi yaqinda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sezilarli o'sishi bilan bog'liq [16;138].

Umumiy jinoyatchilikda voyaga yetmaganlarning hissasi 2018-yilda 2,1 %, 2019-yilda 1,9 %, 2020-yilda 2,6 %, 2021-yilda 3,2 %, 2022-yilda 3,4 %ni tashkil etgan [17]. Ushbu tahlildan ko'rinib turibdiki umumiy jinoyatchilikdagi voyaga yetmaganlarning ulushi unchalik baland emas.

Biz yuqorida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining dinamikasini 5 yilligini tahlil qilganimizda eng yaxshi ko'rsatkich kattalarga nisbatan voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar soni 2019-yilga (818 ta) to'g'ri kelgan edi, ya'ni 2018-yilga (1100 taga) nisbatan 2019-yilda 25,6 %ga kamaygan, biroq voyaga yetmaganlarning umumiy jinoyatchilikdagi (90169 ta) ulushi 2022-yilda ko'tarilib borayotganligini (3112 ta) ko'rishimiz mumkin.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikdagi xissasi esa deyarli o'zgarishsiz qolmoqda hatto ayrim vaqtlarda o'sish kuzatilmoqda. Bu esa bu sohada olib borilayotgan profilaktik ishlarning yetarli emasligini anglatadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishiga voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarliklari va profilaktik hisobda turganliklari ham ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasi IIVdan olingan ma'lumotlarga asosan voyaga yetmaganlarning 2020-2022-yillardagi hamda 2023 yilning yanvar-iyun oyilardagi huquqbuzarliklariga oid statistikaga e'tibor berilsa, 2020-yilda 4257 nafar, 2021 yida 5022 nafar, 2022-yilda 8293 nafar, 2020 yildan 2022 yilgacha profilaktik hisobda olingan voyaga yetmaganlar soni 2020 yilda sezilarli darajada pasayganligini ko'rishimiz mumkin, 2022 yilda 2020-yilga nisbatan +48,6 %ga o'sgan va boshqa yillarga nisbatan eng ko'p voyaga yetmaganlar profilaktik hisobga olingan [4].

XULOSA

Voyaga yetmaganlarning ta'lim olish jarayonidagi muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Ta'lim tizimida ta'limning roli ortib borayotganiga qaramay, ko'p hollarda maktablar hali ham "qiyin" bolalardan xalos bo'lishga harakat qilmoqda. Umumta'lim muassasalariga o'qishga bormayotgan va hech qayerda ishlamayotgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni kamaymayapti. Yosh o'smirlar va o'spirin qizlar o'rtasida jinoyi faollikni oshishning xavfli tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Bolalar va o'smirlar o'rtasida alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarni suiiste'mol qilish, yoshlar va o'smirlar o'rtasida ommaviy guruh ichidagi zo'ravonlik holatlarining davom etayotgani alohida tashvish uyg'otadi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar ko'lamining kengayishi, uning ijtimoiy xavflilik darajasining oshishi, hududlarda jinoyi vaziyatni keskin kuchaytiruvchi jinoyi xulq-atvorning yangi shakllarining paydo bo'lishi va yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashdagi zaif vaziyatning boshqa belgilari vujudga kelishi, jamiyat va davlat unga qarshi kurashning barcha zaxiralaridan to'liq foydalanishdan uzoq ekanining ishonchli dalilidir.

Xulosa qilib aytganda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasining o'ta dolzarb va muhim qismidir. Shu sababli, mamlakatimiz qonunchiligi xavf ostida bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashni tashkil etishga tizimli milliy yondashuvni aks ettiradi va ijtimoiy va profilaktika ishlarining subyektlarini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Салех Али Салем Аль-Марфадий. Криминологические и социально-психологические особенности преступности несовершеннолетних в Республике Йемен. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Ташкент. 1997. С. 24-25.
2. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати/XVII. ҲУҚУҚБУЗАРЛИК/ 1-БЎЛИМ. Ўзбекистон Республикасида рўйхатга олинган жиноятлар сони, 448-б.
https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=415&id=2901&Itemid=1000000000000
3. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг статистик маълумотлари базаси.stat.sud.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 03.09.2023 йилдаги 26/5-3082-сонли Юридик техникуми учун жавоб хати ва <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
5. Колесников, Р. В. Зарубежный опыт профилактики преступности несовершеннолетних / Р. В. Колесников // Вестник Воронежского института ФСИН России. – 2020. – № 4. – С. 143–150.
6. Маслова О.С. Преступность несовершеннолетних в России и зарубежных странах //Хакасский государственный университет им. Н.Ф. Катанова, г. Абакан. 2018. С. 91-93.
7. Б.Нуржанов/Вояга етмаганларнинг маъмурий ҳуқуқбузарлиги учун жавобгарлик/"Qoraqalpog'iston tongi"/газета, 02.07.2020
8. Гўзал Ибрагимова/Вояга етмаганларнинг маъмурий ҳуқуқбузарлиги учун жавобгарлик тушунчаси ва моҳиятига доир айрим масалалар/Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 08 (2022) / ISSN 2181-1415, 99-b
9. Эльконин Д.Б. Введение в психологию развития. - М.: "Тривола", 1994. - 101 с.
10. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 03.09.2023 йилдаги 26/5-3082-сонли хати
11. Сухарев А.Л. Феномен российской преступности в переходный период: тенденции, пути, средства противодействия // Криминологическая правда. 2013. № 5. С. 55
12. Office for National Statistics: [URL:https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/bulletins/childabuseinenglandandwales/march2020](https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/bulletins/childabuseinenglandandwales/march2020) - (дата обращения: 19.05.2020)
13. Зигмунт О.А. Преступность несовершеннолетних в России и Германии: роль современной семьи//Вестник Московского государственного областного университета. 2018. № 4. С. 173-181.
14. Трощинский П.В. Борьба с преступностью в Китае: нормативно-правовой аспект// Журнал российского права. 2015. № 8. С. 47-57.
15. Сухарев А.Л. Феномен российской преступности в переходный период: тенденции, пути, средства противодействия // Криминологическая правда. 2013. № 5. С. 56
16. Дуйсекеев Г. Малолетняя преступность – порождение эпохи перемен // Законность. 2011. № 3. С. 138.
17. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>